

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОҲ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF LAW RESEARCH
SPECIAL ISSUE-2



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№SI-2 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2023-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Artur Gambaryan

yuridik fanlar doktori, professor (Armaniston)

Yosuke Shamoto

yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna

yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslovovna

yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee

yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna

yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi

yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Egamberdiyev Eminjon

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.

Kanton Federal sud markazi (AQSH)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb

yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Skripnikov Nikolay Kuzmich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salayev Nodirbek Saparbayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Қиличев Хайрулла Маматович ФУҚАРОЛАР ЙИГИНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ФУҚАРОЛИК- ҲУҚУҚИЙ ШАРТНОМАЛАРНИНГ ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ.....	5
2. Ubaydullayev Abror Qutpilla o‘g‘li ISLOM MOLIYA HUQUQI: TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA ISTIQBOLLARI.....	15
3. Ходжаев Бахшилло Камолович ТАДҚИҚОТ НАТИЖАСИ СИФАТИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛККА БЎЛГАН ҲУҚУҚЛАР ТРАНСФЕРИ ВА УНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ЖИҲАТЛАРИ.....	21
4. Юсупова Мухбира Абдухоликовна ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ПРОБЛЕМЫ ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ГРАЖДАНСКОГО ОБОРОТА.....	29
5. Жуманов Тўлқинбой Саттарович ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИГА КАДРЛАРНИ ТАНЛАШ ВА ТАЙЁРЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МУАММОЛАР.....	40
6. Абзалова Хуршида Мирзиятовна ЧТО ОЗНАЧАЕТ «ПРАВО НА ЗАБВЕНИЕ» («ПРАВО БЫТЬ ЗАБЫТЫМ, ПРАВО НА УДАЛЕНИЕ ДАННЫХ»)?:.....	48
7. Имомназаров Алишер Хасанович КЎЗДАН КЕЧИРИШ ТЕРГОВ ҲАРАКАТИНИНГ ТАДРИЖИЙ РИВОЖЛАНИШИ.....	56
8. Курбанов Маъруфжон Мамадаминович, Мамазова Зарифа Курбановна ҲУҚУҚИЙ НОРМАЛАР РАҚОБАТИДА ЖИНОЯТ СУБЪЕКТИГА КЎРА ҚИЛМИШНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ.....	68
9. Курбанов Маъруфжон Мамадаминович, Рашидов Фируз Туйғунович ЖИНОЯТ ҚОНУНИНИНГ ҲУДУД БЎЙИЧА АМАЛ ҚИЛИШИ.....	78
10. Аҳмадов Алимардон Аҳмадович “ЖИНОИЙ АКТИВЛАР”НИ ҚАЙТАРИШГА ОИД ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР.....	90
11. Баракаев Лазизжон Отақулович ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТИЗИМИ ЭЛЕМЕНТИ СИФАТИДА ТАФТИШ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ.....	104
12. Турсунова Маликахон Улуғбековна РАҚАМЛАШТИРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ ДИПЛОМАТИК ХИЗМАТГА ТАЪСИРИ: ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ, МУАММОЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	113



Ubaydullayev Abror Qutpilla o‘g‘li,
 Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or
 texnologiyalarni tatbiq etish markazi yetakchi mutaxassisi
 E-mail: aubaydullayev227@gmail.com

ISLOM MOLIYA HUQUQI: TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA ISTIQBOLLARI

For citation: Ubaydullaev Abror Kutpilla ugli. ISLAMIC FINANCIAL LAW: CONCEPT, CONTENT AND PROSPECTS. Journal of Law Research. 2023, Special issue 2, pp.15-20

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8113951>

ANNOTATSIYA

Maqolada Islom moliyasi va uning so‘nggi vaqtlardagi rivojlanish tendensiyalarida Islom moliya huquqining tutgan o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, Islom moliya huquqi tushunchasi, mazmuni, uning asosiy manbaalari hamda bugungi rivojlanish ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi islom moliya sohasini mamlakatda rivojlantirish yo‘lida huquqiy va tashkiliy asoslar yaratayotgani ham maqolada o‘z aksini topgan. Islom moliyasi Islom moliya huquqining muhim prinsplari va qoidalarini o‘zida namoyon etishi haqida umumiy to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Islom moliya huquqi, fiqh, tijorat, iqtisodiyot, qonun, huquq.

Убайдуллаев Аброр Кутпилла угли,
 Исследования в области развития высшего образования
 и передовые ведущий специалист центра внедрения технологий
 E-mail: aubaydullayev227@gmail.com

ИСЛАМСКОЕ ФИНАНСОВОЕ ПРАВО: ПОНЯТИЕ, СОДЕРЖАНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется роль исламского финансового права в исламских финансах и тенденции его развития в последнее время. Также рассмотрено понятие исламского финансового права, его содержание, его основные источники и современные показатели развития. В статье также отражен тот факт, что Узбекистан в последние годы создает правовые и организационные основы для развития исламских финансов в стране. Обычно считается, что исламские финансы воплощают в себе важные принципы и правила исламского финансового права.

Ключевые слова: Исламское финансовое право, фикх, коммерция, экономика, закон, право.

Ubaydullaev Abror Kutpilla ugli,
 Leading specialist of the Center for the development
 of higher education and the introduction of advanced technologies

ISLAMIC FINANCIAL LAW: CONCEPT, CONTENT AND PROSPECTS

ANNOTATION

The article analyzes the role of Islamic financial law in Islamic finance and its recent development trends. Also, the concept of Islamic financial law, its content, its main sources and today's development indicators are considered. The fact that Uzbekistan has been creating legal and organizational foundations for the development of Islamic finance in the country in recent years is also reflected in the article. It is generally discussed that Islamic finance embodies the important principles and rules of Islamic financial law.

Keywords: Islamic financial law, Islamic jurisprudence, commerce, economics, law, rights.

Kirish

«Islom olami ulkan iqtisodiy, investision salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to'g'ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo'llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi» - Shavkat Mirziyoyev.[1]

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli islohatlar moliya sektorini ham qamrab olmoqda va bu yo'nalishda jahon tajribasi, rivojlangan hamda jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilayotgan bugungi tendensiyalar ushbu soha oldida yangi hamda dolzarb maqsad va vazifalar turganini anglatmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi".

Darhaqiqat, bugun Islom moliyaviy mahsulotlari o'z xizmatlari bilan nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki, rivojlangan g'arb mamlakatlarida, AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniyada jadal rivojlanib borayotgan ekan, bugun Islom moliyasining tez rivojlanayotgan munosabatalarini tartibga solishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni yaratish va takomillashtirish sharoit taqazosiga aylanib bormoqda.

Shunday ekan, mamlakatimizda Islom moliyaviy munosabatlarni tartibga solishda qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilishga zarurat paydo bo'lmoqda? Islom moliyaviy tashkilotlari, xususan, Islom banklari faoliyatini yo'lga qo'yish haqida to'xtaladigan bo'lsak,

2020 yil 4 fevral kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida bo'lib o'tgan majlisda Markaziy bank raisi o'rinbosari Botir Zohidov shu yilning o'zida O'zbekistondagi 3ta bankda islomiy moliyalash joriy etilishi mumkinligini ta'kidlagan edi.

Islomiy banklar mijoz talabi asosida ob'ektni qurib berishi, asbob-uskunalar, tovar, xomashyolar olib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkin. Moliyalashtirish asosida savdo amaliyoti yotadi. Zamonaviy bank tizimida esa banklarning savdo amaliyotlarini amalga oshirish qonunchilik nuqtayi nazaridan mushkul bo'lib, bunga soliq hamda bank faoliyatiga taaluqli me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'sqinlik qiladi. Xususan, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunda banklar tijoriy faoliyat bilan shug'ullanmasligi keltirib qo'yilgan. Bu esa Islomiy moliya prinsplariga bir tomonlama xos emas.

Shuningdek, mamlakatda aholi qo'lida bo'sh turgan mablag'larni bugungi an'anaviy banklar tomonidan faol jalb qilish jarayonida aholining salmoqli qismi diniy qarashlar tufayli, ba'zan baland kredit foizlari va qo'shimcha penyalarni tufayli o'z mablag'larini harakatsiz saqlashni afzal ko'rmoqda. Islom moliya tashkilotlari, xususan, banklarining faoliyati yo'lga qo'yilishi esa aholi bo'sh turgan mablag'larini faol jalb etishda hamda ushbu soha diversifikatsiyasi orqali tanlov imkoniyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy bank raisi o'rinbosari Behzod Hamroyev 2021-yilning boshlarida O'zbekistonda islomiy moliya konsepsiyasini o'z ichiga olgan qonun loyihasini ishlab chiqish rejalarini ma'lum

qilgandi. Bunday taklifni Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni parlamentga qilgan Murojaatnomasida aytib o'tgan. Davlat rahbari Markaziy bankka moliya bozorida raqobatni kuchaytirish, shuningdek, islomiy moliya mexanizmlarini joriy etish uchun huquqiy asos yaratish uchun 1-fevralgacha nobank kredit tashkilotlari to'g'risidagi qonun loyihasini ko'rib chiqish topshirig'ini bergan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugun butun dunyoda shiddat bilan rivojlanib borayotgan Islom moliyasi mamlakatimizga ham kirib kelayotganini va uni tartibga soluvchi islom moliyasining me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etayotganini hisobga olgan holda, bunda Islom moliya huquqining albatta muhim va ajralmas o'rni borligini ham inkor eta olmaymiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Islom moliya huquqi islom moliyasi bilan chambarchas bog'liq soha bo'lib, bir qator xorijlik mashhur iqtisodchi va fiqhshunos olimlar Islom moliya huquqiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borganlar hamda Islom moliya huquqi mohiyatiga o'ziga xos ta'riflar keltirib o'tganlar.

Doktor Muhammad Hoshim Kamali Islom moliya huquqi yoki Islom savdo huquqiga (Islamic commercial law) to'xtalar ekan, uni "Islom huquqiy tizimidagi bitimlar fiqhi bo'lib, barcha turdagi tijorat bitimlari, jumladan, shartnomalar, sheriklik, agentlik, ishonch va shunga o'xshash munosabatlar uchun qoidalar hamda ko'rsatmalar beradi" – deb ta'riflagan.[6]

Doktor Abdulla Said Islom savdo huquqini (fiqh al-mu'omalat) Islom jamiyatida tijorat bitimlarini tartibga soluvchi, shariat tamoyillariga asoslangan va adolatli muomala, oshkoralik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga qaratilgan qonunlar va qoidalar tizimi" deb ta'riflagan.[3]

Shayx Vahba az-Zuhayliy Islom savdo huquqini "Islom huquqining iqtisodiy bitimlar va tijorat munosabatlari bilan shug'ullanuvchi, muomalaga oid hujjatlar, shartnomalar, sheriklik, agentlik, sug'urta va boshqa tegishli masalalar bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi sohasi" deb ta'riflagan.[4]

Doktor Muhammad Abdul Rauf Islom savdo huquqini "Islom jamiyatida tijorat faoliyatini tartibga soluvchi, iqtisodiy bitimlarning xolis va adolatli tarzda amalga oshirilishi hamda barcha tomonlarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadidagi qonunchilik bazasi" deb ta'riflagan.[5]

Shayx Muftiy Taqi Usmoniy Islom savdo huquqini "shaxslar va institutlar o'rtasidagi tijorat munosabatlarini tartibga soluvchi hamda shariat tamoyillaridan kelib chiqqan holda adolatli va axloqiy tadbirkorlik amaliyotini targ'ib qilishdan iborat bo'lgan qoida va me'yorlar majmui" deb ta'riflagan.[2]

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavzuni ilmiy o'rganish, tahlil, tarixiy-mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish asnosida tizimli tahlil, kuzatuv va ilmiy abstraksiya kabi usullardan foydalanilgan. Maqolada islom moliya huquqi rivojlanishi hamda manbaalari tarixiylik usuli orqali hozirgi davrdagi islom moliyasini tartibga solishda tutgan o'rni va ahamiyatiga mos ravishda ilmiy taklif va tavsiyalar berildi.

Tahlil va natijalar.

Islom moliya huquqi tushunchasi. Islom moliya huquqi yoki shariatga asoslangan moliya islom huquqi (shariat) tamoyillariga asoslangan bank va moliyalashtirish tizimidir. U moliyaviy faoliyatni tartibga soluvchi axloqiy va g'oyaviy tamoyillar majmuyiga tayanadi. Jumladan, foiz undirish yoki to'lashni ta'qiqlash, chayqovchilikdan va asossiz taxminga asoslangan moliyaviy faoliyatdan uzoq turish (g'arar) hamda faqat halol deb topilgan (islom huquqida ruhsat etilgan) biznesga sarmoya kiritish. Islom moliya huquqi ham moliyaviy operatsiyalarda xolislik, oshkoralik va ijtimoiy adolat muhimligini ta'kidlaydi. Bugungi kunda islom moliya huquqi asosan musulmonlar yashaydigan mamlakatlarda qo'llanilishiga qaramay, an'anaviy bank xizmatlariga muqobil sifatida jahon miqyosida juda tez rivojlanish tendensiyalariga ega bo'lmoqda.

Islom moliya huquqi manbaalari. Islom moliya huquqi manbaalari boshqa huquqiy soha manbaalaridan farqli ilohiy va o'zgarmas tabiatga egaligi bilan ajralib turadi hamda bir necha o'n asrlardan buyon uning fiqhiy olimlar tomonidan rivojlantirilishi Islom huquqi me'yorlari asosida hamda uning asosiy manbaalari doirasida amalga oshirib kelindi.

Qur'on: Qur'on Islomning markaziy diniy matni bo'lib, savdo, xayr-ehson, meros va ribo (subo) kabi iqtisodiy va moliyaviy masalalarga bag'ishlangan ko'plab oyatlarni o'z ichiga oladi.

Sunnat: Sunnat deganda hadislarda qayd etilgan Muhammad (S.A.V.) ning so'zlari va harakatlari nazarda tutiladi. Bu hadislarining ko'pchiligi savdo, zakot (sadaqa) va haj (ziyosat) kabi moliyaviy masalalarga bag'ishlangan.

Ijmo: Ijmo muayyan masalada ulamolarning ijmosiga ishora qiladi. Islomiy moliya kontekstida ijmo moliyaviy tamoyillar va amaliyotlarni o'rnatish va tasdiqlash uchun ishlatilgan.

Qiyos: Qiyos o'xshash fikr yuritish jarayoniga ishora qiladi, bunda huquqiy tamoyillar mavjud huquqiy pretsedentlardan kelib chiqadi. Qiyos islomiy moliya tamoyillarini yangi moliyaviy mahsulotlar va amaliyotlarga kengaytirish uchun ishlatilgan.

Ijtihod: Ijtihod islom qonunlarini mustaqil fikr yuritish va sharhlash jarayonini nazarda tutadi. Islomiy moliya kontekstida ijtihod yangi va murakkab moliyaviy masalalarni hal qilish uchun ishlatilgan.

Bu manbalardan islom ulamolari va huquqshunoslari asrlar davomida shariat nomi bilan mashhur bo'lgan islom moliya huquqi to'plamini ishlab chiqishda foydalanganlar. Shariat tamoyillari islomiy moliyaning barcha jabhalarini, jumladan, moliyaviy mahsulotlar va operatsiyalarni tuzilmalash, foyda va zararlarni taqsimlash hamda risklarni boshqarishni nazarda tutadi.

Shuningdek, Islom moliyaviy resurslarini aktiv iqtisodiy munosabatlarga jalb etishda Sha'riat kengashi nihoyatda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Islom moliyaviy institutlarini boshqarishdagi asosiy boshqaruv organlaridan biri ham aynan Sha'riat kengashi hisoblanadi. Ushbu kengashning asosiy vazifasi yuqorida tilga olingan islom moliya institutlari tomonidan taklif etiladigan mahsulotlar va xizmatlarning sha'riat tamoyillariga mosligini aniqlashtirish va nazorat qilishdir. Kengash tarkibida ko'p hollarda islom nazariyotchi olimlaridan iborat qo'mita bo'lib, ko'plab islom moliya xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarda islom olimlari jalb etilgan qo'mita tarkibi soha va funktsiya nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlanishi mumkin. Moliyaviy muassasaning Sha'riat kengashi moliyaviy institut tomonidan iste'molchi va mijozlarga taklif etilayotgan barcha yangi mahsulotlarni mijozlar ushbu mahsulotlar va xizmatlarni qabul qilgunga qadar bo'lgan davrda kuzatib boradi va monitoringini amalga oshiradi. Shu bilan birga, kengash kuzatuv davomida moliyaviy muassasaga bevosita daxldor bo'lmagan alohida masalalarni ham ko'rib chiqish vakolatiga ega. Hususan, mijoz tomonidan Islom mahsulotlari bilan xizmat ko'rsatuvchi muassasaga beriladigan savdo takliflarining sha'riat normalariga muvofiqligi haqida xulosa berish shular jumlasidandir.

Sha'riat normalariga mos moliyaviy xizmatlarga talab o'sib borarkan, sha'riat kengashlari bugun yangi moliyaviy instrumentlar va xizmatlarni qayta shakllantirishda, moliyaviy institutlarni yangi shart-sharoitlarga moslashtirishda, yangidan-yangi mijozlarni jalb etishda hamda bugungi an'anaviy moliya sohalarini kengaytirishda nihoyatda muhim rol o'ynashi mumkin. Bu yerda e'tirof etilishi lozim bo'lgan muhim fakt, yuqorida zikr etilgan kengashning bir qator zamonaviy moliyaviy hamda fiqhiy olimlardan iborat bo'lishi hamda ularning yetarli shaxsiy bilim va tajribaga ega ekanligi islom moliyaviy tizimi innovatsion potensialga ega ekanligini va o'z prinsplarini saqlab qolgan holda an'anaviy moliyaviy tizimning bir bo'laki sifatida rivojlana olishi mumkinligini ko'rsatadi.

Qur'onda savdo, tijorat, xayriya, meros va ribo (sudxo'rlik) kabi iqtisodiy va moliyaviy masalalarda yo'l-yo'riq ko'rsatadigan ko'plab moliyaviy oyatlar mavjud. Aniq raqamlarni aytish mushkul, lekin ba'zi olimlar Qur'onda iqtisodiy va moliyaviy masalalarga bag'ishlangan 200 dan ortiq oyat borligini taxmin qilishadi. Bu oyatlar moliya va savdo bilan bog'liq masalalarda musulmonlar uchun muhim hidoyat manbaasidir.[8]

Sunnatda Muhammad (S.A.V) so'zlari va harakatlaridan olingan ko'plab moliyaviy hadislar mavjud. Bu moliyaviy hadislar savdo, sarmoya, zakot (sadaqa), meros va riba (sudxo'rlik) kabi keng ko'lamli mavzularga taalluqlidir. Aniq raqam aytish qiyin, lekin ba'zi olimlar moliyaviy masalalarga bag'ishlangan hadislar to'plamini tuzganlar. Jumladan, Imom Abu Dovud "Kitob al-buyu" ("Muomalalar kitobi") nomli hadislar to'plamini tuzgan bo'lib, unda savdo va savdoga oid yuzlab hadislar mavjud. Xuddi shunday Imom Buxoriyning hadislar to'plamida ham sadaqa, meros va sarmoyaga oid ko'plab moliyaviy hikmatlar mavjud.

Islom moliya huquqining islom moliyasini rivojlantirishdagi dolzarbligi. Soha mutaxassislarining fikricha, Islom moliya tizimi oxirgi yillarda ham izchil hamda sezilarli o'sib borish tendensiyasi kuzatiladi. Islom moliyaviy institutlar safiga qo'shilayotgan yangi tashkilotlar, Islom moliya qonunlarini qabul qilayotgan davlatlarning soni ortib borishi bu tizimning keng imkoniyatlarga ega ekanidan dalolatdir.[9]

Ayniqsa, bir qator sodir bo'lgan jahon inqirozlari Islom moliyasiga bo'lgan qiziqishni keskin oshirmoqda. Bugungi an'anaviy moliyaviy munosabatlar hali ishlab chiqarilmagan yoki yo'q narsani sotish, opsiyon, derivativ, fyuchers kabi negizi real biznes bilan asoslanmagan qimmatli qog'ozlar savdosi, Short sales singari qarzga olingan va tegishli bo'lmagan aktivlarni sotish, shartnomada narxlar hamda muddatlari aniq bo'lmagan mahsulotlarning tijorati vas hu kabi barcha moliyaviy spekulyatsion faoliyatlarni qamrab olishi moliya bozorining hajmini sun'iy tarzda pufak singari shishirib, yirik iqtisodiy kollapslarni keltirib chiqarishini 2008-yilda sodir bo'lgan hamda AQSHda boshlangan subkreditli ipoteka inqirozi misolida ko'rishimiz mumkin.[7]

Bir qator statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugun O'zbekistonda kredit portfelining YaIMdagi ulushi 25 foiz atrofida, aholidan banklarda jalb etilgan depozitlar esa umumiy YaIMning 20 foizini ham tashkil etmaydi. Bundan ko'rinmoqdaki, Islom moliya institutlari yuqoridagi statistic ko'rsatkichlarni rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Islom moliyaviy institutlari moliya bozorida ishlab ketishi uchun esa Islom moliya huquqi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.[10]

Umuman islom moliya huquqi O'zbekistonda bir necha sabablarga ko'ra tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda:

1.Diniy qarash nuqtayi nazaridan: O'zbekistonda islom diniga e'tiqod qiluvchilar ko'pchilikni tashkil etadi va ko'plab o'zbek musulmonlari moliyaviy operatsiyalarini islom tamoyillari va qadriyatlariga muvofiq olib borishni afzal ko'radilar. Islomiy moliya islomda ribo hisoblangan foizli kreditlar va boshqa moliyaviy vositalarga asoslangan an'anaviy moliya modeliga muqobil variantni taklif etadi.

2.Iqtisodiy o'sish: O'zbekiston hukumati islom moliyasini iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashi mumkin, chunki u musulmon davlatlaridan xorijiy sarmoyalarni jalb qilishi va O'zbekistonda islom moliyasi xizmatlarini kengaytirishi mumkin. O'zbekiston islom moliyasini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida bir qancha islohotlarni amalga oshirdi, masalan, 2018-yilda islomiy moliya operatsiyalari uchun qonunchilik bazasini yaratish bo'yicha huquqiy asos yaratish ishlari boshlandi.

3.Ijtimoiy mas'uliyatli moliya: Islom moliyasi O'zbekistonning barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyatga qaratilgan e'tiboriga mos keladigan axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli moliyani targ'ib qiladi. Bu qashshoqlik, tengsizlik va atrof-muhitning tanazzulga uchrashi kabi muammolarni hal qilishda yordam berishi mumkin, bular O'zbekiston uchun muhim muammolardir.

4.Moliyaviy munosabatlarga faol jalb etilish imkoniyati: Ko'pgina o'zbekistonliklar, ayniqsa qishloq joylarda yashovchilar odatiy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniga ega emaslar. Islom moliyasi tavakkalchilikni taqsimlash modeliga asoslangan moliyaviy xizmatlar va mahsulotlardan foydalanishni ta'minlashga yordam berishi mumkin, ular yanada adolatli va ko'roq odamlar uchun ochiq bo'lishi mumkin.

Islom moliya huquqi global moliya bozorida so'nggi o'n yilliklarda o'z ta'sirini shiddat bilan orttirib bormoqda. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida shubhasiz, Islom moliya huquqi konsepsiyasi hamda mazmuni shariat prinsplariga tayangan holda moliyaviy operatsiyalarda tenglik va adolatni rag'batlantirishidir.

Umumiy qilib aytiladigan bo'lsa, yuqoridagi omillar islom moliya huquqi O'zbekistonda mamlakatning diniy e'tiqodi, iqtisodiy o'sish istiqbollari, ijtimoiy mas'uliyatli moliyaga e'tibor qaratilishi, moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati tufayli muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. O'zbekistonning islom moliyasi sektori o'sishda va rivojlanishda davom etar ekan, u mamlakat moliya tizimi va iqtisodiy taraqqiyotida tobora muhim rol o'ynash imkoniyatiga ega.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, Islom moliyasi rivojlangan g'arb va sharq mamlakatlarida bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham jadal sur'atlar bilan rivojlanib borarkan, uni huquqiy tartibga soluvchi milliy qonunchilik bilan birgalikda ushbu sohaga oid bo'lgan islom huquqi me'yorlaridan ham foydalanishga hamda tayanishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Umuman, mamlakatimizda islom moliya huquqi yoki islom savdo huquqini o'rganish hamda uning me'yorlarini islom moliyasini tartibga solishda qo'llash uchun foydalanish bir qator masalalarni hal etishni talab etadi:

– Avvalo, O'zbekistonda islom moliya sohasi rivojini qo'llab quvvatlash uchun moliya sohasiga oid me'yoriy hujjatlarni o'rganish va ularga zarur qo'shimcha hamda o'zgartirishlar kiritish zarur:

– Islom banklari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar jumladan, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunga zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq;

– Islom moliya huquqiga oid bilimlarni chuqur egallagan hamda ushbu bilim hamda ko'nikmalarni zamonaviy moliyaviy-huquqiy munosabatlar bilan birga qo'llay oladigan kadrlarni tayyorlash masalasini xal etish zarur.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis). <https://president.uz/>
2. “Islom moliyasiga kirish”, Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy, Maktaba Ma'ariful Quran Karachi – 2007 yil, Mehran Printers, Karachi (Introduction to Islamic Finance, Mufti Muhammad Taqi Usmani, Maktaba Ma'ariful Quran Karachi - 2007, Mehran Printers, Karachi).
3. “Applying Islamic Law in Contemporary Times: Challenges and Opportunities”, Dr Abdulla Said – 2016, Academia.edu
4. Financial Transactions in Islamic Jurisprudence, Dr Vahba az-Zuhayliy - p-1084, kitaabun.com
5. “The Islamic doctrine of economics and contemporary economic thought: Highlight of a conference on a theological inquiry into capitalism and socialism”, Dr Muhammad Abdul Rauf – Washington 1979 First Edition, American Enterprise Institute. ISBN 0-8447-1333-3.
6. “Shariah and the Halal Industry” by Mohammad Hashim Kamali, Oxford, Oxford University Press, 2021, 312 pp.
7. The Global Competitiveness Report 2018-2019. Available at: <http://www3.weforum.org/docs/GCR2018-2019/OSFullreport>.
8. Kamali M. H. et al. Islamic commercial law: an analysis of options //American Journal of Islam and Society. – 1997. – T. 14. – №. 3. – C. 17-37.
9. Hasan M., Dridi J. The effects of the global crisis on Islamic and conventional banks: A comparative study //Journal of International Commerce, Economics and Policy. – 2011. – T. 2. – №. 02. – C. 163-200.
10. Islom taraqqiyot banki rasmiy sayti (The official website of the Islamic Development Bank) www.isdb.org.



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF LAW RESEARCH
SPECIAL ISSUE-2

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000